


## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)

2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 751,7 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 12,8 foizga oshdi. Shu jumladan, eksport hajmi 327,3 mln. AQSH dollari (31,2 foizga oshgan) va import hajmi 424,4 mln. AQSH dollariga (1,9 foizga oshgan) etdi. Tashqi savdo sal’dosi minus -97,2 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

### Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSH dollar)



Qashqadaryo viloyati jahonning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Viloyat tashqi savdo aylanmasining dunyo davlatlari qatoriga nisbatan salmoqli hissi Xitoy Xalq Respublikasida (27,6 %), Rossiya Federatsiyasida (10,0 %), Qozog`istonda (9,7 %), Turkiyada (8,6 %), Eronda (7,7 %), Litvada (4,4 %) va Koreya Respublikasida (4,3 %) qayd etilgan.

## Asosiy hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(ming AQSH doll.)

Davlat nomi	2018-yil yanvar-noyabr	2019-yil yanvar-noyabr
Xitoy	134654,8	207377,3
Rossiya	72442,2	75374,8
Qozog'iston	42656,4	73126,2
Turkiya	49186,8	64795,8
Eron	15765,9	57920,5
Litva	2006,6	32878,4
Koreya Respublikasi	151875,3	32038,3
Afg'oniston	8191,7	28645,1
Germaniya	9731,8	21261,4
Tojikiston	29222,3	19173,4
Pokiston	5950,2	14273,3
Indoneziya	27078,2	13909,7
Ukraina	14128,8	13384,9
Qirg'iziston	3682,4	10454,2
AQSH	4951,7	9375,9
Turkmaniston	3175,8	7973,6
Yaponiya	13946,9	6040,3
Gong kong	2809,1	5406,9
Hindiston	5833,8	5113,1
Fransiya	1661,6	4882,6
Shveytsariya	822,1	4825,2
Belarusiya	1448,6	4665,4
Sloveniya	-	3403,4
Latviya	7525,3	3153,7
Estoniya	2967,1	2722,9
Isroil	343,8	2677,1
Italiya	19612,8	2429,3

Tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 16,8 %), Rossiya Federatsiyasi (10,3 %), Qozog'iston (12,3 %), Turkiya (15,7 %), Afg'oniston (8,7 %) va Tojikiston (5,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda. Hamda ularning jami eksportdagi ulushi 69,3 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

**Viloyat eksport hajmida yuqori ulushga ega davlatlar**

(ming AQSH doll.)

Davlat nomi	Eksport	Tashqi savdo aylanmasi	
		ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Eron, Islom Respublikasi	54872,8	16,8	3,7 m.
Turkiya	51333,8	15,7	183,3
Xitoy	45837,8	14,0	74,5
Qozog'iston	40256,8	12,3	145,8
Rossiya	33625,2	10,3	110,1
Afg'oniston	28614,8	8,7	3,5 m.
Tojikiston	18142,1	5,5	65,7
Indoneziya	13877,7	4,2	51,3
Pokiston	13832,6	4,2	2,6 m.
Qirg'iziston	10311,2	3,2	4,1 m.
Ukraina	3720,3	1,1	3,4 m.
Malayziya	1578	0,5	58,0 m.
Chexiya	1358,7	0,4	3,1 m.
Koreya Respublikasi	1344,9	0,4	27,0 m.
Filippin	1329,8	0,4	-
Polsha	983	0,3	159,3
Moldova, Respublika	815,5	0,2	127,9

Asosiy 7 ta eng yirik davlatlar bilan amalga oshirilgan import Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va AQSh hamkor davlatlaridan jami import hajmi 301,1 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 70,9 % ini tashkil qiladi.

### **Viloyat import hajmida yuqori ulushga ega davlatlar**

*(ming AQSH dollar)*

Davlat nomi	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
		ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Xitoy	161539,5	38,1	2,2 m.
Rossiya	41749,6	9,8	99,6
Qozog'iston	32869,5	7,7	2,2 m.
Litva	32396,0	7,6	18,0 m.
Koreya Respublikasi	30693,4	7,2	20,2
Germaniya	21255,4	5,0	2,2 m.
Turkiya	13462,1	3,2	63,5
Ukraina	9664,7	2,3	74,1
AQSH	9355,5	2,2	189,9
Turkmaniston	7327,4	1,7	2,7 m.
Yaponiya	6024,1	1,4	43,2
Gong kong	5406,9	1,3	14,8 m.
Frantsiya	4882,6	1,2	3,0 m.
Shveytsariya	4825,2	1,1	5,9 m.
Hindiston	4800,7	1,1	85,9

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-noyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 27,3 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,4 % ga oshdi.


Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018- yilning yanvar-noyabr oyida 74,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 72,7 % ni tashkil etdi.

## EKSPORT

2019-yil yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 327,3 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar eksporti 98,0 % ulushga ega, shundan: to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (17,7 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (8,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (27,0 %), shuningdek, kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (18,2 %), Mashina va asbob uskunalari (0,5 %) va boshqalar (25,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi

(mln. AQSH dollar)




**Eksport tarkibi**

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollar	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollar	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollar	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>327,3</b>	<b>131,2</b>	<b>100,0</b>	<b>107,9</b>	<b>118,8</b>	<b>100,0</b>	<b>219,3</b>	<b>138,3</b>	<b>100,0</b>
<b>To'qimachilik va to'qimachilik buyumlari</b>	58,0	119,6	17,7	0,4	100,0	0,4	57,6	118,8	26,3
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	88,3	3 m.	27,0	40,7	2,3 m.	37,7	47,6	4 m.	21,7
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	59,5	95,7	18,2	35,4	102,7	32,8	24,1	87,0	11,0
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	29,2	109,9	8,9	12,4	46,9	11,5	16,8	80 m.	7,7
<b>Mashina asbob uskunalari</b>	1,5	17,8 m.	0,5	0,7	8,3 m.	0,6	0,8	100,0	0,4
<b>Xizmatlar</b>	6,5	75,0	2,0	3,8	114,5	3,5	2,7	50,2	1,2
<b>Boshqalar</b>	84,3	113,6	25,7	14,5	155,4	13,3	69,8	107,7	31,8

Xizmatlar eksporti hajmi 6464,2 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,0 % ini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transpot xizmati, qurilish xizmatlari, safarlar va moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.


**Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)**



Tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko‘ra 2019-yilning yanvar-noyabr oyida eksport qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 79,9 mln. AQSH dollariga ko‘p eksport qilindi va yil boshidan buyon 320,8 mln. AQSH dollarni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa, 6,5 mln. AQSH dollarga yetgan.

## Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, %

(2019-yil yanvar-noyabr)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya (15,7 % ni), Eron (16,8 % ni), Xitoy (14,0 %), Qozog'iston (12,3 % ni), va Rossiya (10,3 % ni) davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 69,1 % ini tashkil qiladi. Bu davlatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan paxta tolasi va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan ayrim tovarlar tahlili



Piyoz va chesnok  
10280,7 tonna, 4588,7 ming AQSH  
dollarida eksport qilindi.





Qalampir (Piper, Capsicum, Pimenta navlari) 371,0 ming tonna 20500,3 ming AQSH dollarida eksport qilindi.



Uzum  
2983,6 tonna, 6277,1 ming AQSH dollarida eksport qilindi.



Karam  
8128,3 tonna, 2573,7 ming AQSH dollarida eksport qilindi.



Sabzi  
6713,0 tonna, 3224,4 ming AQSH dollarida eksport qilindi.



Shaftoli, o'rik, gurdoli va olcha  
8364,3 tonna 9117,2 ming AQSH dollarida eksport qilindi.



Quriq mevalar  
8416,8 tonna 16588 ming AQSH  
dollarida eksport qilindi.



Bug'doy  
23745 tonna 4983,6 ming AQSH  
dollarida eksport qilindi.




Oq yog'  
3840,0 tonna 2900,4 ming AQSH  
dollarida eksport qilindi.



Teri mahsulotlari  
223994 ming dona 5423,7 ming AQSH  
dollarida eksport qilindi.



Energiya mabalari  
29191,0 ming AQSH dollarida eksport  
qilindi.



To`qimachilik mahsulotlari  
58041,1 ming AQSH dollarida eksport  
qilindi.

Meva sabzavot eksportida hamkor davlatlarga 75790,7 tonna 56719,0 ming AQSH dollarlik meva sabzavot mahsulotlari eksport qilindi. Asosiy meva sabzavot eksport hajmi Qozog'iston (48,5 %), Turkiya (3,7 %), Pokiston (14,8 %) va Qirg'iziston (11,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Viloyatda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2018-yil yanvar-noyabr			2019-yil yanvar-noyabr		
	tonna	ming AQSH doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSH doll.	ulushi, %
<b>Jami:</b>	<b>30811,6</b>	<b>21249,8</b>	<b>100,0</b>	<b>56719,0</b>	<b>75790,8</b>	<b>100,0</b>
Qozog'iston	18326,4	11713,2	59,5	27516,2	16224,3	48,5
Rossiya	8075,8	4816,6	26,2	13465,6	6179,6	23,7
Pokiston	136,0	95,7	0,4	5266,9	11148,6	9,3
Afg'oniston	1172,2	664,5	3,8	3381,1	5379,3	6,0
Turkiya	600,6	1696,2	1,9	2091,1	21700,6	3,7
Ukraina	181,0	126,8	0,6	1482,2	3301,9	2,6
Tojikiston	16,0	19,6	0,1	1054,7	1476,3	1,9
Iroq	206,7	389,3	0,7	594,4	332,0	1,0
Polsha	0,0	0,0	0,0	554,8	482,3	1,0
Qirg'iziston	12,9	6,5	0,0	261,2	8568,4	0,5
Eron, Islom Respublikasi	276,1	241,2	0,9	210,0	188,0	0,4

Latviya	205,4	103,4	0,7	195,4	93,4	0,3
Belarusiya	0,0	0,0	0,0	168,9	64,5	0,3
Turkmaniston	68,1	95,3	0,2	72,2	47,8	0,1
Koreya Respublikasi	0,1	0,5	0,0	69,9	50,0	0,1
Bolgariya	0,0	0,0	0,0	67,5	314,2	0,1
BAA	456,7	526,1	1,5	54,8	112,3	0,1
Xitoy	76,8	61,1	0,2	51,1	55,8	0,1
Gruziya	0,0	0,0	0,0	43,5	5,2	0,1
Kipr	0,0	0,0	0,0	23,1	3,9	0,0
Ozarbayjon	51,7	47,7	0,2	21,8	28,2	0,0
Germaniya	0,0	0,0	0,0	20,0	5,7	0,0
Ruminiya	0,0	0,0	0,0	19,9	11,8	0,0
Litva	0,0	0,0	0,0	16,5	3,8	0,0
Moldova,	42,6	9,8	0,1	15,0	8,8	0,0
AQSH	0,0	0,0	0,0	1,0	3,8	0,0
Yaponiya	0,0	0,0	0,0	0,2	0,2	0,0
Livan	21,0	63,5	0,1	0,0	0,0	0,0
Saudiya Arabistoni	22,0	55,0	0,1	0,0	0,0	0,0
Vetnam	845,0	510,1	2,7	0,0	0,0	0,0


Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. 2019 yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra meva sabzavot mahsulotlarining eksport hajmi 75 790,7 ming AQSh dollarini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 martaga ga o'sdi.

## IMPORT

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 424,4 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 101,9 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (62,5 %), Qora va rangli metallar (4,9 %), Energiya manbaalari (1,7 %), Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari (3,7 %), xizmatlar (0,3 %) va boshqalar (15,2 %) hisobiga to'g'ri keladi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi

(mln. AQSH dollari)



Importning eng katta ulushi, jumladan, mashina va asbob-uskunalar (28,2 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (5,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (11,1 %) shuningdek qora va rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (7,4 %), MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (72,6 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (8,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.



**Import tarkibi**

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSHdollar.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSHdollar.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSHdollar.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>424,5</b>	<b>101,9</b>	<b>100,0</b>	<b>97,1</b>	<b>126,8</b>	<b>100,0</b>	<b>327,4</b>	<b>96,2</b>	<b>100</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	15,7	108,3	3,7	10,8	90,8	11,1	4,9	187,9	1,5
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	49,9	148,0	11,8	21,5	180,7	22,1	28,5	130,3	8,7
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	7,0	3,8 m.	1,7	5,7	3,8 m.	5,9	1,4	3,8 m.	0,4
<b>Qora va rangli metallar</b>	20,7	26,4	4,9	7,2	108,9	7,4	13,5	18,8	4,1
<b>Mashina asbob uskunalar</b>	265,2	106,3	62,5	27,4	99,8	28,2	237,8	107,1	72,6
<b>Xizmatlar</b>	1,3	50,0	0,3	1,1	42 m.	1,1	0,2	8,5	0,1
<b>Boshqalar</b>	64,5	179,4	15,2	23,4	136,4	24,1	41,1	2,2 m.	12,6

Hisobot davri natijalariga ko'ra, import bo'yicha hamkor-davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini 28,3 % ulushi bilan ortda qoldirgan holda Xitoy umumiy import hajmida 38,1 % ulushi bilan birinchi o'rinni egalladi.

### Viloyatda hamkor davlatlar bilan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	ming AQSH doll.		ulushi, %		o'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Jami:</b>	<b>416714,8</b>	<b>424455,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>№</b>	<b>№</b>
Xitoy	73142,4	161539,5	17,6	38,1	2	1
Rossiya	41905,3	41749,6	10,1	9,8	3	2
Qozog'iston	15053,1	32869,5	3,6	7,7	6	3
Litva	1794,9	32396,0	0,4	7,6	18	4
Koreya Respublikasi	151870,3	30693,4	36,4	7,2	1	5
Germaniya	9731,6	21255,4	2,3	5,0	9	6
Turkiya	21184,7	13462,1	5,1	3,2	4	7
Ukraina	13045,5	9664,7	3,1	2,3	8	8
AQSH	4926,1	9355,5	1,2	2,2	12	9
Turkmaniston	2688,2	7327,4	0,6	1,7	16	10
Yaponiya	13946,9	6024,1	3,3	1,4	7	11
Gong kong	38,1	5406,9	0,0	1,3	45	12
Fransiya	1661,3	4882,6	0,4	1,2	19	13
Shveysariya	822,1	4825,2	0,2	1,1	32	14



Hindiston	5589,7	4800,7	1,3	1,1	11	15
Belarusiya	1106,7	4268,3	0,3	1,0	27	16
Sloveniya	0,0	3403,4	0,0	0,8	55	17
Eron, Islom Respublikasi	1571,1	3047,7	0,4	0,7	23	18
Latviya	7421,8	2877,6	1,8	0,7	10	19
Estoniya	2967,1	2722,9	0,7	0,6	15	20
Isroil	343,1	2674,6	0,1	0,6	38	21
Italiya	19612,8	2429,3	4,7	0,6	5	22
Kanada	1361,2	1770,8	0,3	0,4	24	23
Niderlandiya	902,7	1444,8	0,2	0,3	30	24
Buyuk Britaniya	432,3	1396,0	0,1	0,3	35	25
Vengriya	38,1	1284,6	0,0	0,3	44	26
Argentina	756,8	1104,2	0,2	0,3	33	27
Singapur	979,9	1096,2	0,2	0,3	28	28
Avstriya	839,8	1049,4	0,2	0,2	31	29
Tojikiston	1599,3	1031,3	0,4	0,2	21	30
Polsha	227,0	932,8	0,1	0,2	39	31
Ekvador	0,0	779,8	0,0	0,2	56	32
Belgiya	160,2	658,7	0,0	0,2	43	33
BAA	2103,5	527,9	0,5	0,1	17	34






Portugaliya	31,3	513,1	0,0	0,1	46	35
Avstraliya	1,1	477,0	0,0	0,1	52	36
Ispaniya	196,2	467,1	0,0	0,1	40	37
Pokiston	745,2	440,6	0,2	0,1	34	38
Bolgariya	161,0	438,6	0,0	0,1	42	39
Chexiya	1626,0	382,9	0,4	0,1	20	40
Gretsiya	0,0	325,6	0,0	0,1	57	41
Qirg'iziston	1164,9	143,0	0,3	0,0	26	42
Ruminiya	4823,4	119,2	1,2	0,0	13	43
Gruziya	27,4	112,7	0,0	0,0	47	44
Lyuksemburg	0,0	47,8	0,0	0,0	58	45
Misr	16,1	38,2	0,0	0,0	51	46
Indoneziya	0,0	32,0	0,0	0,0	59	47
Moldova, Respublika	0,0	30,9	0,0	0,0	60	48
Afg'oniston	0,0	30,3	0,0	0,0	61	49
Braziliya	0,3	26,1	0,0	0,0	53	50
Shvetsiya	351,7	23,5	0,1	0,0	37	51
Chili	17,6	17,6	0,0	0,0	50	52
Tailand	419,9	14,0	0,1	0,0	36	53
Tayvan	0,1	11,9	0,0	0,0	54	54
Daniya	0,0	5,7	0,0	0,0	62	55

Malayziya	179,1	3,4	0,0	0,0	41	56
Vetnam	952,4	1,0	0,2	0,0	29	57


Xizmatlar importi hajmi 1,3 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50,0 % ga kamaygan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari, transport xizmatlaridan iborat bo'ldi.

### Xizmatlar importi tarkibi, (%)



Xizmatlar importi hajmi 1324,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, viloyatda import qilinayotgan tovar va xizmatlar yanvar-noyabr oylarida, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 mln. AQSH dollarga ko'p import qilindi va yil boshidan buyon 424,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida import qilingan ayrim tovarlar tahlili



**Ip yigiruv mashinasi**  
205 ta  
47072,3 ming AQSH dollariga import qilindi.



**Traktorlar**  
375 ta qishloq xo'jaligi texnikasi  
24085,4 ming AQSH dollriga  
import qilindi.



**Qo'y va echkilar**  
58621 bosh,  
4925,5 ming AQSH dollariga  
import qilindi.



**Yirik shoxli nasldor qoramollar**  
5996 bosh,  
6113,0 ming AQSH dollariga  
import qilindi.



**Kartoshka**  
8803,9 tonna,  
1425,3 ming AQSH dollariga  
import qilindi.



**Sitrus mevalar  
2888,0 tonna,  
1030,0 ming AQSH dollariga  
import qilindi.**

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlar Xitoy, Litva, Rossiya, Qozog‘iston va Turkiya hisoblanadi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatga 60 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo‘lgan Xitoy, Litva, Rossiya, Qozog‘iston va Turkiya hamkor davlatlardan jami import hajmi 290,0 mln. AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 70,5 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashi uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**

**Tel.: 75-221-44-28**